

## “DUNYO BO‘YICHA GENDER FARQLARI”

Abdishukurova Orzigul Chori qizi  
IIV Surxondaryo akademik litseyi ingliz tili o‘qituvchisi

*Annotatsiya: Ushbu maqola orqali O‘zbekiston hamda xalqaro doirada gender tengligini kelib chiqishi, ahamiyati va ustun tomonlari yoritib berilgan.*

*Kalit so‘zlar: gender, ayollar, jins, intellekt, patriarxal.*

Gender tushunchasi XIV asrdan boshlab Yevropada, asosan, grammatik tushuncha sifatida qo‘llana boshladi. Lotin, german, yunon va boshqa shu kabi tillarda ot so‘z turkumini feminin, maskulin va neytral turlarga ajratishni nazarda tutilgan. Bundan tashqari, gender tushunchasi erkak va ayollarga xoslik ma‘nosini ham anglatgan, lekin u XX asr o‘rtalarigacha rasman termin sifatida qo‘llanmagan. Gender va jins tushunchalari “ayol” va “erkak” ma‘nolarini anglatga-da, lekin ular o‘rtasida biroz farqli bo‘lgan ma‘no mavjud. Jins individlar o‘rtasidagi biologik farqlarni, gender esa madaniy va ijtimoiy farqlarni bildiradi.

Gender va jins tushunchalari juda uzoq tarixga ega. Besh asr davomida bu ikki tushuncha “erkak jinsi” va “ayol genderi” kabi biologik jins va grammatik ma‘noda yonma-yon ishlatilib kelgan. XX asrga kelib bu ikki tushuncha yangi ma‘nolarda qo‘llana boshladi. Asr so‘ngida “gender shaxsiyat” tushunchasi ham keng iste‘molga kirdi. Keyinchalik bu tushuncha o‘rnida ham gender atamasi ishlatila boshladi. Erkak va ayol tushunchalari biologik jinsga tegishli bo‘lsa, maskulin hamda feminin terminlarining ma‘nosi gender bilan aloqadordir.

Jins so‘zi ko‘proq jinsiy garmonlar, jinsiy organlar, biologik jins, jinsiy munosabat, jinsiy zaiflik, jinsiy zo‘ravonlik kabi birikmalarda, gender esa gender farqlanish, gender bo‘shliq, gender tenglik, gender kamsitish, gender aloqa, gender analiz, gender chegaralari, gender dixotomiyasi, gender mutaassib, gender auditoriyasi, gender stereotiplar kabi tushunchalar bilan faol qo‘llanadi.

Biologik jins, gender, femininlik va maskulinlik terminlari xorij tilshunosligidagi tadqiqotlarning deyarli barchasida tilga olingan. Jins erkaklar va ayollar o‘rtasidagi biologik, tabiiy farq bo‘lib, anatomik va fiziologik mohiyatni, ya‘ni individning biologik jinsga – erkak va ayol jinsiga mansubligini aniqlash uchun asos bo‘lgan belgilar majmuidir. Gender esa o‘zgarmas xususiyatga ega ekanligi bilan jinsdan farqlanadi, lekin genderning ham turli madaniyatlarda turlicha namoyon bo‘lishini hisobga olish kerak. Umuman, jins va gender o‘zaro bog‘liq tushunchalar bo‘lib, inson tug‘ilgandagi jinsiga qarab uning gender shaxsiyati shakllanadi.

Gender tengligi va jinsiy tenglik, aniqrog‘i: erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tenglik — bu oilada va jamiyatda erkaklar va ayollar o‘rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlar. Ba‘zi tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, gender tengligi — bu patriarxal tizimdan keyingi ijtimoiy-jinsiy munosabatlarning keyingi bosqichi. Gender tengligi tamoyili insonning shaxs sifatida paydo bo‘lishiga

to'sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy to'siqlarni o'rganish va yo'q qilish, shuningdek, hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollar shaxsiyatini anglash uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat. Biologik jins va ijtimoiy jins differensiyasi 1935-yilda Polineziya orollarida o'smirlarning ijtimoiylashuvini tadqiq etgan amerikalik antropolog Margaret Mid tomonidan tahlil qilingan. Gender tushunchasi shaxs ijtimoiylashuvi bilan uzviy bog'liq. Insonlar tug'ilishi bilan ijtimoiylashadi, o'zi yashayotgan jamiyatning axloq, fe'l-atvor, xulq me'yorlari, ijtimoiy determinant (lot. determinans – aniqlovchi)larga muvofiq rivojlanadi, voyaga yetadi va o'zini tutishni o'rganadi. Insonlarga oila, maktab, professional muhit, ommaviy axborot vositalari, axborot texnologiyalari va madaniy normalar katta ta'sir ko'rsatadi.

Dunyoda bo'layotgan o'zgarishlar, ayol zotiga nisbatan bo'layotgan zo'ravonlik natijalari hamda ayol intellektining rivojlanishino hisobga olib gender tenglik masalariga alohida e'tibor qaratildi. Bugungi kunda ko'plab davlatlarda jins tengligi ta'minlash siyosatning eng birinchi pog'onalaridan joy egallagan. Statistika olib qarasa, dunyo bo'ylab ko'pchilik ayollar oilaviy, maishiy va jinsiy zo'rovonliklarga qarshi huquqiy himoyaga muhtoj. Shuningdek, bandlik masalasi ham bir muncha og'riqli nuqtada, dunyoda ba'zi ayolar ham oilani ham farzandini ta'minlashig to'g'ri keladi ammo ularning ishlash jarayonida ham bir qancha gender tengsizlik mavjud. Jins bo'yicha ish haqida tafovut dunyo miqyosida 23% ni tashkil etadi va qishloq joylarda 40% gacha yetadi. Ayollar dunyo aholisining qariyb yarmini tashkil etsa-da, milliy parlamentlar a'zolarining 18,4% i ayollar hissasiga to'g'ri keladi. Milliy parlamentda ayollarning ulushi o'rtacha 25% dan kam. Dunyo bo'yicha 17 ta davlat yoki hukumat rahbari ayol kishidir. Yevropada yirik kompaniyalarning atigi 3% ini rahbar ayollar boshqaradi.

Ayollarga nisbatan zo'rovonlik genderni asoslangan zo'rovonlikning eng jiddiy shakllaridan biridir. Ayollar va qizlar turli xil zo'rovonlik shakllariga duch kelishadi, ya'ni oilaviy zo'rovonlik, jinsiy ta'qiblar, jismoniy, psixologik, iqtisodiy va boshqalar. BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi har beshinchi ayol jismoniy yoki jinsiy zo'rovonlikka uchraydi. Yevropadagi ayollarning 20% dan 50% gacha qismi oilaviy zo'rovonlikdan qiynalishadi. Iqtisodiy tenglikda ham, ya'ni oziq-ovqat mahsulotlarining 50% i xotin-qizlar tomonidan ishlab chiqariladi, ammo ayollarning 1% xususiy mulk egasidir. Dunyo aholisining qashshoq qismining 70% i ayollarga to'g'ri keladi. Qashshoqlashishning eng avvalida ayollar turar ekan bu jamiyatlarning iniroziga olib keladi.

O'zbekistonda ham ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2019-yil iyun oyida Oliy Majlis Senatida: "Meni kishilarimizning ongida paydo bo'lgan stereotip ko'p o'ylantiradi. Odatda biz ayolni, avvalambor, ona, oila qo'rg'onining qo'riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu, shubhasiz, to'g'ri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo'lishi kerak", – deb ta'kidlagan. So'nggi yillarda gender tenglikni ta'minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish bo'yicha bir necha yo'nalishlarda olib borilmoqda.

Xulosa, Jamiyatda har bir jins vakilining o'z o'rnini bor, ularning har birining vazifasi, imkoniyati mavjud. Ba'zi hollarda esa har ikkisinin tengsizligi ayniqsa, ayollarning kamsitilishi natijasida ko'plab noxush holatlar namoyon bo'ladi. Jamiyatda har ikki

shaxsning ham teng bo'lishi bu ayolning erkak kishidan ustun degani emas faqatgina har ikkisinining teng huquqlari borligini isbotlash uchun gender tengligi iborasi jamiyatimizga kirib keldi. Vaholanki har bir ayolning ham o'z kuch irodasi borligi, unga zaif hech bir ishni qilsa olmaydigan shaxs sifatida qaramasligimiz lozim. Ayol bu hayot muvozanatidir. Uning o'rni nafaqat oilada, balki jamiyatda ham aks etadi. Bugun u ham quruvchi ham duradgor ham chegarachidir. Yana bir eng ulug' vazifasi millat farzandlari tarbiyalovchi shaxs. Jamiyatda qancha ular uchun sharoit yaratilar ekan ayollar bu imkoniyatdan samarali foydalana oladi. Gender tengligi ta'minlanishi bu har bir xotin qizlar uchun yana bir ishonch demakdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Belarusiya Davlat Universitet\pravoviye Garantii I ryealizatsiya printsipov gyendyernogo ravyenstva\Prakticheskoe posobie\Minsk\Izdatelskiy sentr BGU\2018
2. Pol/Gender: sprav. posobie dlya yuristov. Minsk, 2004. S. 11.
3. Slovar gendernix terminov [Elektronniy resurs] / pod red. A. A. Denisovoy; Regionalnaya obshchestvennaya organizatsiya „Vostok-Zapad: Jenskie Innovatsionnie Proekti“. Rejim dostupa: <http://www.owl.ru/gender/index.htm>. Data dostupa: 09.10.2017; Gendernoe ravenstvo v sfere visshego obrazovaniya: puti i sredstva dostijeniya / I. N. Kandrichina [i dr.]; nauch. red.: V. G. Shadurskiy, L. S. Lukina. Minsk: Yunipak, 2016. S. 6.
4. Gender munosabatlar nazariyasi va amaliyotiga kirish\Toshkent 2007-yil
5. Shtileva, L.V. Faktor pola v obrazovanii: tenderniy podxod i analiz. -M: PYeRSE, 2008. -S. 283-287.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 46-moddasi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 1992.